

5-sinf Tarbiya fanidan 1- chorak BSB nazorati. Loyiha ishi.

Mavzu: “Mas’uliyat haftaligi”

Eslatma: *Loyiha ishi mavzusini o‘quvchilar o‘zlari ham tanlashlari mumkin.*

Fanlararo integratsiyalashuvi: Tarix, adabiyot ...

Muammo:

– Insonlar o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarligini anglamasligi.

Maqsad:

- mas’uliyatni anglash;
- shaxs sifatida xatti-harakatlarini boshqarishni shakllantirish;
- huquq va majburiyatlar haqida bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish;
- hamkorlikda ishlashni shakllantirish va rivojlantirish.

Loyihani amalga oshirish uchun qo‘yiladigan talablar:

- a) jamoaning “Mas’uliyat haftaligi” rejasini tuzing;
- b) hafta davomida maktab, mahalla, ko‘cha-ko‘yda o‘quvchilarning xatti-harakatlarini kuzating (masalan, tanaffusda yo‘laklarda to‘g‘ri harakatlanishi, maktab hududini ozoda saqlashi, axlatlarni belgilangan joyga tashlashi
- c) ular tomonidan mas’uliyatsizlik natijasida yo‘l qo‘yilayotgan harakatlarni aniqlang. Sabablarini o‘rganing.

Loyiha ishi bo‘yicha o‘quvchilarda shakllanadigan ko‘nikmalar:

- maqsadni aniq qo‘ya olish va amalga oshirishga intilish;
- mas’uliyat va majburiyatga amal qilish;
- shaxs sifatida o‘zini anglash;
- mustaqil so‘g‘lom fikrga ega bo‘lish;
- favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanishni bilish
- bir-birini takrorlamaydigan g‘oyalarni tadbiq qilish;
- kreativlik;
- nutq madaniyati;
- jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari (guruhda 4-7 nafar o‘quvchi ishtirok etishi tavsiya etiladi).

Loyiha ishining bosqichlari (xarita)

O‘qituvchiga tavsiyalar:

- jamoalarni shakllantirish;
- muammoli topshiriqlarni bayon qilish;
- baholash mezonini e‘lon qilish;
- bajarish muddatini belgilash (loyiha ishi uzoq muddatda bajariladi).

O‘quvchiga tavsiyalar:

- reja ishlab chiqish;
- topshiriqlarni taqsimlash;

- o‘quvchilarning xatti-harakatlarini kuzatish;
- qayd qilib borish;
- muammoni aniqlash;
- muammoga yechim izlash;
- tahrirlash
- qayta tahrirlash;
- taqdim etish.

Jamoalarni shakllantirish:

- o‘qituvchi tomonidan shakllantirish;
- qur’a tashlash orqali shakllantirish;
- o‘quvchilar tomonidan shakllantirish (ayrim o‘quvchilarning jamoalarga qo‘shilmay qolish holatiga yo‘l qo‘ymaslik kerak).

“Mas’uliyat haftaligi” qaydnomasi:

Dushanba:

Holat: _____

Sabab: _____

Seshanba:

Holat: _____

Sabab: _____

Chorshanba:

Holat: _____

Sabab: _____

Payshanba:

Holat: _____

Sabab: _____

Juma:

Holat: _____

Sabab: _____

Shanba:

Holat: _____

Sabab: _____

Xulosa: _____

Eslatma: O'quvchilar oldindan jamoalarga bo'linib loyiha ishiga tayyorlanadilar. BSB – 1 kuni loyiha ishini taqdim etib baholanadilar.

Loyiha ishini baholash mezonlari		
1	Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlarining maqsad bilan uyg'unligi	10 ball
	– loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, maqsadga erishish uchun noodatiy yondashilgan hamda maqsadga muvofiq tarzda taqdim etilgan bo'lsa	9-10 ball
	– loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, ammo juz'iy kamchiliklar sabab maqsaddan biroz og'ish kuzatilgan bo'lsa	4-8 ball
	– loyihaning bajarish bosqichlari (xaritasi)da ketma-ketlikka amal qilinmagan, bu holat loyiha maqsadining yoritilishida aks etgan bo'lsa	1-3 ball
2	Muammo va yechim	10 ball
	– muammoni to'g'ri aniqlab yechim yopgan bo'lsa	9-10 ball
	– aniqlangan muammoga reja asosida yondoshilgan bo'lsa	4-8 ball
	– reja belgilangan vazifalarga muvofiq tuzilgan bo'lsa	1-3 ball
3	Jamoa bo'lib ishlash	10 ball
	– jamoa maqsadga erishish uchun bir-birini to'ldirsa, o'zining hamda sheriklarining vaqtini qadrlasa, navbat bilan so'zlasa, taqdimotda jamoadoshining fikrini tinglab, qo'llab-quvvatlasa	9-10 ball

	–jamo'a bir maqsad yo'lida bir-birini to'ldirsa, o'zining hamda sheriklarining vaqtini qadrlasa-da, taqdimotda sustkashlikka yo'l qo'ysa	4-8 ball
	–jamoadagi tarqoqlik kuzatilsa, barcha o'z fikrini ma'qullasa va buning natijasi taqdimotda aks etsa	1-3 ball
4	Taqdimotchining shaxsiy xislatlari	10 ball
	–loyiha ishi natijalarini taqdim etishda nutqiy savodxonligi yuqori bo'lib, aniq va lo'nda bayon etilsa	5 ball
	– xulq atvor qoidalariga amal qilib, vatanparvarlik ruhida yondoshilgan bo'lsa	5 ball
5	Tahlil va xulosa	10 ball
	– to'g'ri tahlil qilingan bo'lsa	4 ball
	– tahlil natijalari bo'yicha xulosa chiqarilgan bo'lsa	4 ball
	– tahlil va xulosa natijalarini ijtimoiy hayotda qo'llash mumkin bo'lsa	2 ball
JAMI:		50 ball

